

## O'ZBEK TILI LEKSIKOGRAMMATIKASINI RIVOJLANTIRISHDA METODOLOGIK YONDASHUV

D.D.Inamov p.f.b,f.d, dotsent  
Q. Xoshimjonova stajyor tadqiqotchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kundagi o'zbek tiliga oid bo'lgan darsliklarimiz holati hamda uni takomillashtirish yuzasidan ayrim usullar va metodlar tavsiya etilgan. O'zbek tili leksikogrammatikasini rivojlanishining lingvistik baza va unda so'zlarni morfologik tahlil qilishdagi nazariyalar o'zaro mutanosibligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili leksikogrammatikasi, elektron korpus, darajalab o'qitish tizimi, tajriba – sinov usuli, statistik tahlil, emperik- nazariy tadqiqot, induksiya, deduksiya, modellashtirish, lemma lug‘at, so‘z birikmasi lug‘ati.

**Abstract:** This article presents the current state of our Uzbek language textbooks and some methods for its improvement. The linguistic base of the development of the lexicogrammar of the Uzbek language and the interrelationship of the theories in the morphological analysis of words in it are analyzed.

**Key words:** lexicogrammar of the Uzbek language, electronic corpus, graded teaching system, experimental test method, statistical analysis, empirical theoretical research, induction, deduction, modeling, lemma dictionary phrase dictionary.

Ilmiy tadqiqot dasturi tajriba-sinov ishlarini maqsadli, izchil amalga oshirish mazmuni belgilaydi. Pedagogik tajriba-sinov dasturi mavzuning dolzarbligi, ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatini aniqlash, ilmiy farazning haqqoniyligini asoslash qo'llanmasidir. Tadqiqot nazariyasining amalda sinab ko'rish; tadqiqot ilmiy-amaliy imkoniyatini joriy etish, umumlashtirish; bir necha variantda har xil sharoitda tadqiqot natijasini tekshirib ko'rish; matematik, statistik tahlil qilish va baholash kabi yo'naliishlardan iborat bo'ladi. Ma'lumki, amaliyot ilmiy bilishning me'zonidir. Ilmiy tadqiqot fanning istiqbolini belgilovchi, mumtoz qonuniyatlarni yorituvchi yoki vaqtinchalik bo'lishi, ba'zan takror bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari ana shu imkoniyatlarni hayotda o'z ifodasini aniqlashdan iborat bo'ladi<sup>1</sup>. Biz tajriba - sinov ishlarini 7-8-sinf ona tili darsliklari yuzasidan emperik-nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanib tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish metodlari orqali ko'rib chiqamiz. Avvalo, tahlil yuzasidan 7 – 8 sinf o'quvchilaridan “Ijtimoiy tarmoqlar” mavzusiga oid esse olindi va bu sinf darsliklarining metodikasi yuzasidan o'zaro muhokamaga tortildi. 8 – sinf ona tili darsligi deduktiv metod asosida ishlab chiqilgan

<sup>1</sup> B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. T., 2018. –B 132

bo‘lib, asosan, avval qoida so‘ng shu qoidaga oid mashqlar berilgan. 7-sinf ona tili darsligida esa induktiv metodga asoslangan bo‘lib, qoidalar birmuncha kamaytirilgan (asos sifatida 8 soatli olmoshlar mavzusi 2 soatga qisqartirilgan) o‘quvchilarni hayotga tayyorlovchi ijtimoiy va ilmiy mavzulardagi matnlar berilgan va bular mashq sifatida amalda qo‘llanilib kelinmoqda. asosiy masalamiz yuzasidan, 7 –8 –sinf o‘quvchilari 6 oylik kuzatuv sinovida bo‘ldilar ya’ni fevral oyiga qadar 7-sinf o‘quvchilari(150ta o‘quvchi) induktiv metodda 8-sinf o‘quvchilari(150ta o‘quvchi) deduktiv metodda o‘qitildi. Olingan esse natijalari yuzasidan induktiv metod o‘rtacha(7-sinf) yuqori natija ko‘rsatdi. 7-sinf ona tili<sup>2</sup> darsligi avvalgi yillardagi darsliklar kabi grammatik jihatdan mavzulashtirilmagan. Mundarijada ijtimoiylikka oid mavzular aks etilgan (masalan, Kurash- milliy sport turi, zamonamiz qahramonlari, c vitamin...). Bu o‘rinda shunday savol tug‘iladi bugungi kun darsliklarimiz darajasi qanday holatda. 7 –sinf o‘quvchisi o‘zbek tilidan darajasi B1 yoki A2 talablariga javob beradimi, ya’ni ommabop tanish mavzulardagi matnlar tuza olishda grammatik qoidalardan foydalana olish ko‘nikmasi va bunda qancha so‘z ishlatishlik kerak kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik masalalari bugungi ta’lim tizimimizdagi muhim ahamiyat qaratishishimiz kerak bo‘lgan muammolardan biridir.

Darajalab o‘qitish ingliz tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda dastlab Oksford va Kembrijda ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu til bilish salohiyatini va o‘rganish tezligini oshirgan. Biz bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan hayotimizda juda ko‘plab **sefr, alles** kabi testlarga ko‘zimiz tushmoqda, 2 yilda o‘qib C1 darajasini olishga muofiq bo‘layotgan vatandoshlarimiz ko‘pchilikni tashkil etadi, lekin masalaning yana bir tomoni borki, 11yil maktab darsliklarini o‘qib, ona tilidan imtihon topshirilganda B2 darajasini ham bera olmagan o‘quvchilar talaygina ekanligi bugungi ta’lim tizimimizdagi eng og‘riqli nuqtalarimizdan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan barcha ona tili darsliklarini mavzulashtirib emas, darajalab o‘qitilish taklifini beramiz. Bunda darslik nomlarida daraja nomlari bilan qayd etilishi kerak. Bugungi tilshunosligimizga yangi termin bilan kirib kelayotgan hamda jahonda endi kurtak yozayotgan leksikogrammatik va antropotsentrik yondashuv nuqtayi nazar bilan mavzular yoritilishi kerak.

Leksikogrammatikada grammatika (morphologiya va sintaksis) bilan lingvistik struktura lug‘at yoki leksion qatlama birlikda hisobga olinadi. Bunda so‘z va grammatik strukturalar alohida emas, balki bir –biriga bog‘liq holatda o‘rganiladi. Ushbu yondashuv asosiy tushuncha sifatida amaliy tilshunoslikka yaqin bo‘lib, uning nazariy - metodologik asosini funksional lingvistika va korpus lingvistikasi tashkil etadi. Leksikogrammatikada muloqot jarayonida so‘z ma’no qurshovi hamda grammatik belgilarga ko‘ra bir vaqtda tahlil qilinadi. Pedagogikada mazkur

<sup>2</sup> I. Azimova, K. Monlonova, S.Quronov,Sh.Tursunov... 2022. Toshkent.

yondashuv o‘quv jarayoni uchun muhim metodologik asos sanaladi. Leksikogrammatikani rivojlantirishda korpus asosida rivojlantirish K.Grin tomonidan olib borilgan ishlarda yaqqol kuzatiladi. Bunda fanga tegishli so‘z lug‘atini uch qisimga ajratilib, jami yigirma to‘rtta ro‘yxat tuzilgan.

Lemma lug‘ati – so‘z va grammatik shakillangan alohida so‘zlar ro‘yxati: *bordim*(xabar mayli, I shaxs o‘zi amalga oshirgan ish- harakat, o‘tgan zamон), *borgan*(x.m, III - shaxs kimdir tomonidan eshitilgan ish -harakat, o‘tgan zamон), *borgin*( buyruq mayli, IIshaxsga qaratilgan kelasi zamон ish- harakati)....

o‘zakdosh so‘zlar lug‘ati: *do ‘st, do ‘stlik, do ‘stlar, do ‘stlashmoq, do ‘sting,*

so‘z birikmasi lug‘ati: har bir sohadagi so‘zlarning chastotasiga ko‘ra o‘ntagacha bo‘lgan assotsiativ birikma: *kompyuter texnologiyasi, kompyuter asri, kompyuter tarmog‘i...bularning barchasi matnlarda qo‘llangan so‘z chastotasiga qarab tasniflanadi*. Ushbu usul oliv ta’lim ingliz tili akademik lug‘atni shakillantirishda metodologik me’zon bo‘lib hizmat qilgan<sup>3</sup>.

Deduksiya umumiyyidan xususiyga bo‘lgan mantiqiy xulosalarga asoslanadi. Induksiya mantiqiy xulosalar xususiyidan umumiyya tomon amalga oshiriladi. Bu ikki metodlar ham bir-biri bilan bog‘liq va bir-birini to‘ldirib.. yangi, aniq va to‘g‘ri bilimlami egallashga zamin yaratadi<sup>4</sup>. Bugungi darsliklarimiz ertangi kelajagimizga faqat o‘zbek tilida so‘zlovchilarni emas, balki uni mukammal tushuna oluvchi yoshlarni tarbiyalashga undamog‘i kerak va bu bugungi tilshunoslar, adabiyotshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. T.,2018.
2. I. Azimova, K. Monlonova, S.Quronov,Sh.Tursunov... 2022. Toshkent
3. H. Dadaboyev. N. Abdurahmonova. O‘zbek tili leksikogrammatikasi hamda o‘quv lug‘atchiligini rivojlantirishda elektron korpusning ro‘li/ Til va adabiyot ta’limi. 2022. 11-sون

<sup>3</sup> H. Dadaboyev. N. Abdurahmonova. O‘zbek tili leksikogrammatikasi hamda o‘quv lug‘atchiligini rivojlantirishda elektron korpusning ro‘li/ Til va adabiyot ta’limi. 2022. 11-sон.B. 3-6.

<sup>4</sup> B. Xodjayev, A. Choriyev, Z. Saliyeva. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. T.,2018. –B 111